



TARIXIY TADQIQOTLAR
Ilmiy jurnali

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

TOSHKENT-2024

TARIXIY TADQIQOTLAR
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Bosh muharrir:
Главный редактор:
Chief Editor:
Suleymanov Rustam Xamidovich
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Bosh muharrir o'rinbosori:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:
Shakirov Ilyas Raximzyanovich
t.f.f.d., (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

TAHRIR HAY'ATI
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich
tarix fanlari doktori, professor, Akademik
O'zbekiston Milliy universiteti

Muminov Alisher Gaffarovich
Siyosiy fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Zuyev Andrey Sergeyevich
tarix fanlari doktori, professor
Novosibirsk Davlat universiteti

Yunusova Xurshida Erkinovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Kobzeva Olga Petrovna
tarix fanlari doktori, professor
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulov Axmad Baymaxamatovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Gabrielyan Sofya Ivanovna
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ubaydullayeva Barno Mashrabjonova
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Ochildiyev Fayzulla Bobokulovich
tarix fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Siddikov Ravshan Berdimuratovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Narbekov Abdikamil Vafayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Xoliqulova Shaxnoza Boymuxammatovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Navoiy Davlat pedagogika instituti

Tuxtabekov Kozimbek Azimbekovich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Bababekov Akbar Davurbayevich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Zamonov Akbar Turginovich
tarix fanlari nomzodi, professor
Toshkent xalqaro Kimyo universiteti

Kandaxarov Anvarjon Xasanovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich
tarix fanlari nomzodi, dotsent
O'zbekiston Milliy universiteti

Alinazarova Dildora Valisherovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Tog'ayev Jasur Erkinovich
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

O'sarov Umid Abdumavlyanovich
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Abdulayeva Nigora Sanjarovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Davlat Jaxon tillari universiteti

Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
O'zbekiston Milliy universiteti

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет Национального
Университета Узбекистана имени Мирзо
Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib
Faculty of history of the National university of
Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/> ; E-mail:
I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

MUNDARIJA/СОДЕРЖАНИЕ/CONTENT

1. Abdullayev Utkir Ismailovich., Matnazarova Mohira O'ktamovna KO'CHMANCHI CHORVADORLARDA HARBIY SAN'ATNING TARAQQIY ETISH BOSQICHLARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR	4
2. Bababekov Akbar Davurbayevich O'ZBEK OILASIDA YER VA SUV BILAN BOG'LIQ EKOLOGIK TARBIYA	12
3. Bahranov Sherzod Tashtursunovich., Sirliyev Erkin Nazarovich УСТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ ТОРГОВЫХ ОТНОШЕНИЙ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ С ВОСТОЧНЫМ ТУРКЕСТАНОМ ЧЕРЕЗ ФЕРГАНСКУЮ ДОЛИНУ В КОНЦЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ	26
4. Kandaxarov Anvarjon Xasanovich KARMANA ME'MORIY OBIDALARI TARIXI	44
5. Matyakubova Muborak Madrimovna., Atamuratova Dilafruz Rashidovna O'ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING TARIXIY TENDENSIYALARI	60
6. Narbekov Abdikamil Vafaevich YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA DINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI	70
7. Normurodov Dilmurod Raxmatullayevich TOSHKENT VOHASINING BURGULIK MADANIYATI HUSUSIDA	83
8. Ochildiyev Fayzullo Babakulovich XIX ASRNING IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGIDA IJTIMOY MUNOSABATLAR VA SOLIQ TURLARI	100
9. Smesova Katerina Aleksandrovna ИСТОРИЯ КНИГОПЕЧАТАНИЯ И КНИЖНОГО ДЕЛА В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ	112
10. Ernazarov Shermuxammad Eshbekovich TARIXIY TARAQQIYOT VA MILLIY G'OYA	126
11. Egamberdiyeva Guzal Akramjonovna ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ - КАК МЕЖДУНАРОДНЫЙ ТУРИСТИЧЕСКИЙ БРЕНД	143
12. Yusupov Axmedjon Shonazarovich OROLBO'YI KO'CHMANCHI SAK-MASSAGET QABILALARINING DINIY QARASHLARI VA E'TIQODLARI	155

Ernazarov Sh. E.

Katta o'qituvchi, f.f.d (PhD),
O'zbekiston Milliy universiteti
shernazarov61@mail.ru

TARIXIY TARAQQIYOT VA MILLIY G'OYA

ANNOTATSIYA

Maqolada tarixiy taraqqiyot tushunchasi va uning tuzilmasi, tarix va tarixiy ong haqidagi turli konsepsiyalar va yondashuvlar, ijtimoiy taraqqiyot natijasida uning rivojlanishi, tarixiy tafakkurning milliy g'oya tarixini anglashdagi o'rni, tarixiy ong va milliy ong mushtarakligi va zamonaviy sharoitida uni amalga oshirish omillari haqida keng mushohada qilingan. Shuningdek, maqolada hozirgi kunda tarixiy tafakkurning milliy g'oya tarixini anglashdagi ahamiyati haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarixiy ong, tarixiy tafakkur, milliy g'oya, milliy ong, milliy mafkura, vatanparvarlik.

Эрназаров Ш.Э.

Старший преподаватель (PhD)
Национальный университет Узбекистана
shernazarov61@mail.ru

ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются понятие исторического прогресса и его структура, различные концепции и подходы к истории и историческому познанию, его развитие в результате общественного развития, роль исторического сознания в понимании истории национальных идей, общность исторического сознания и национального сознание. В статье также обсуждается важность исторического сознания в понимании истории национальной идеи сегодня.

Ключевые слова: историческое мышление, историческое сознание, национальная идея, национальное сознание, национальная идеология,

Ernazarov Sh. E.
PhD., Senior lecture
National university of Uzbekistan
shernazarov61@mail.ru

HISTORICAL PROGRESS AND THE NATIONAL IDEA

ABSTRACT

The article examines the concept of historical progress and its structure, various concepts and approaches to history and historical knowledge, its development as a result of social development, the role of historical consciousness in understanding the history of national ideas, the commonality of historical consciousness and national consciousness. The article also discusses the importance of historical consciousness in understanding the history of the national idea today.

Key words: historical thinking, historical consciousness, national idea, national consciousness, national ideology, patriotism.

KIRISH

Jahonda kechayotgan geosiyosiy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlanishi davlatlar faoliyatida yangicha munosabatlarni talab qilmoqda. Dunyoning mohiyatini chuqur anglash, o'zgarishlarni milliy va umuminsoniy manfaatlar asosida tahlil etgan holda ularga jamiyatni safarbar etish barqaror taraqqiyotning muhim shartlaridan biri bo'lib hisoblanmoqda. Jahon xalqlarning yuksalishida ularning ma'naviy-g'oyaviy birlashuvining ahamiyati ortmoqda. Milliy g'oya xalqlarning tarixiy-milliy qadriyatlariga bog'lab singdirilmoqda. Uning mafkuraviy ta'siri mamlakat aholisini umumiy maqsadlar yo'lida birlashtirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

G'oya va mafkura xususidagi keyingi yillarda chop etilgan adabiyotlarda g'oyalarning mazmun va namoyon bo'lish shakllari tamoyili asosida ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g'oyalarga turkumlashtirilgan. Adabiyotlarda g'oyalarni ularning inson va jamiyatga ta'sir

qilish xususiyatlari tamoyiliga ko'ra, ularning namoyon bo'lish shakllari ikki turkumga - bunyodkor va vayronkor g'oyalarga ajratiladi.

XX asrda jahonda chop qilingan adbiyotlar tahlil qilinsa, milliy g'oyaning zamonaviy talqinlari ko'plab yaratildi. Zamonaviy deganda XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi kungacha taraqqiy etib kelayotgan ilmiy tafakkur tarzi nazarda tutiladi. Bunda tushuncha va fikrlarning ilmiy tavsifiy xususiyati birinchi o'rinda turadi. Rus olimlari ijtimoiy ideal milliy g'oya bo'lishini asosladilar. YA'ni, insoniylik (gumanizm) maqsadlar majmui bo'lgan ijtimoiy ideal jamiyat kishilarini bunyodkorlikka undaydi. Bu fikr ko'pchilikni qiziqtirdi va bu g'oya Rossiya xalqi uchun milliy g'oya bo'la oladi, degan fikrga kelindi.

Metodologik jihatdan g'oyalar to'g'risidagi qarashlarga e'tibor qilganda, xususan ingliz faylasufi A.Toynbi tarixni anglash milliy g'oyani vujudga keltiradi, degan fikrni ilgari surdi. Uning fikricha, har bir xalqning o'ziga xos tarixi mavjud, uni bilish xalqni taraqqiyot uchun birlashtiradi. Chunki, milliy g'oya amaliyoti uchun tarix haqiqatidan ibrat olish va saboq chiqarish zaruriyatidir. Hozirgi kungacha ingliz jamiyati uchun A.Toynbining bu g'oyasi muhim bo'lib qolmoqda.

Amerikalik faylasuf K.Popler ochiq jamiyat g'oyasi milliy g'oya bo'lishi mumkin, degan fikrni aytadi. Unga ko'ra, har qanday jamiyat kishilar uchun bo'lishi, kim qayerda yashashni istasa o'sha yerda yashashi kerak. Bu qarashda insonning erkin yashash huquqi oliy qadriyat sifatida talqin qilinadi va globallashtiruv davri uchun xos bo'lgan fikr, deyish mumkin. Ammo, faylasuf fuqarolar jamiyat qoidalariga amal qilishini nazarga olmaydi va Amerika jamiyati modelini namuna qilib qo'rsatadi [8, 11].

Milliy yuksalish g'oyasi millatning, davlatning, yurtning qadr-qiymatini yuksaltiradi, iqtisodiy, sotsial, siyosiy va ma'naviy salohiyatini yuzaga chiqaradi, oriyat va g'ururini asraydi, istiqbolini belgilaydi, kelgusi taraqqiyot uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Milliy g'oya o'zbek millatining o'ziga xosligi nimada ekanligini asoslab beruvchi ilmiy-nazariy va falsafiy qarashlar sistemasidir.

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Insoniyatning tarixiy taraqqiyoti zahirida g'oya yotadi. Eng buyuk kashfiyotlar yoki tub sotsial o'zgarishlar avvalo ular haqidagi orzu-niyatlardan, intilishlardan boshlangan. Muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, xalq, davlat yoki jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad-mudaolarni, orzu-intilishlarin o'zida mujassam etuvchi g'oyalar tizimi sifatida namoyon bo'ladigan mafkura - istiqbolning yaratuvchisidir. Darhaqiqat, Insoniyat tarixi – g'oya va mafkuralar tarixidir [9, 6].

Mafkuralar insoniyat ibtidosida mifologik-diniy qarashlar sifatida shakllana boshlagan. Kishilarning bir-birlariga munosabatlarining asoslarini belgilovchi muayyan qarashlar, g'oyalar, aqidalar, qoidalar va talablar zahirida muayyan qo'rsatmalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan, ularga rioya qilish qat'iy nazorat qilingan. Mehnat sohalarining kengayishi ijtimoiy mehnat taqsimotining rivojlanishi natijasida jamiyatda tabaqalanish sodir bo'lgan, bu jarayon bilan uzviy bog'liq tarzda turli-tuman diniy, dunyoviy, etnik, huquqiy va boshqa g'oya va mafkura shakllari yuzaga kela boshlagan.

Insoniyat tarixining ibtidosidan to hozirgi kunga qadar son-sanoqsiz g'oya va mafkuralar shakllangan, tarqalgan, ularning ayrimlari bugungi kunda ham yashab kelmoqda, ayrimlari esa kishilarning xotiralaridan o'chib ketgan. Bu jarayon hozirgi davrda ham davom etmoqda va insoniyat mavjud ekan, davom etaveradi. G'oya va mafkuralar turli tarixiy davrlarda turli nuqtai nazariyalardan turkumlashtirib kelingan. Xususan, ilk davrlarda g'oya va mafkuralar ezgu va yovuz, ilohiy va dunyoviy turkumlarga ajratilgan.

Xususan, taraqqiyotga xizmat qiluvchi, jamiyat va insonni ezgulikka undovchi g'oyalar sifatida ozodlik va mustaqillik, tinchlik va adolat, tenglik va hamkorlik, do'stlik va birdamlik, hurfikrlilik va ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik va xalqparvarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari qayd etiladi. Jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo'luvchi, g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiluvchi vayronkor g'oyalar sifatida esa - mustabidlik va bosqinchilik, terrorchilik va aqidaparastlik, jaholatparastlik va irqchilik, millatchilik va mahalliychilik, vatansizlik va yovuzlik g'oyalari sanab o'tiladi.

Shuningdek, mafkuralar ham ijobiy natija beruvchi bunyodkor mafkuralarga va salbiy natija beruvchi vayronkor mafkuralarga turkumlashtirilgan. Progressiv, liberal, tadrijiy va real (amaliy) mafkuralar ijobiy natija beruvchi bunyodkor mafkuralar sifatida, regressiv, mustabid, inqilobiy va utopik (hayoliy) mafkuralar esa - salbiy natija beruvchi vayronkor mafkuralar sifatida tasniflanadi [10, 12].

Agar g'oya tushunchasi asosan aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, milliy g'oya tushunchasi milliy his-tuyg'u, millat mentaliteti bilan uzviy bog'liqdir. Milliy g'oya - halqning qalbidan chiquvchi, uning orzu-umidlarini o'zida ifoda etuvchi, xalqning haq-huquqini himoya qiluvchi, uning qadr-qiymatini yuksaltirishga undovchi haqqoniy fikrdir. Milliy g'oya xalqning o'zligini anglatuvchi, milliy tuyg'ularini uyg'otuvchi, milliy g'urur va oriyatini qo'zg'atuvchi fikrdir. Milliy g'oya xalqni uyushtiruvchi, uning qadr-qiymatini tiklovchi, o'zligini anglatuvchi, ijodkorlik va yaratuvchanligini ro'yobga chiqaruvchi, jamiyat taraqqiyotini insonparvarlik yo'nalishiga yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya vatanparvarlikka, xalqning tarixiy ongi va xotirasiga, o'zligini anglashiga asoslanadi.

Tarix - millatning tarbiyachisidir, o'zlikni anglash - tarixni bilishdan boshlanadi. Alohida inson xotirasida o'zining hayotida nimalar qilganligi, uning aql-zakovati va irodasi nimalarga sarflanganligi qay darajada o'rnashib qolsa, millat uchun ham u tomondan amalga oshirilgan narsalar shu darajada yaqin va qimmatlidir. Tarix - bu insoniyatning, millatning ijtimoiy xotirasi, uning o'z-o'zini bilishi va anglashidir: voqelikda yo'qolgan narsalar ongda, xotirada yashaydi. O'tmishni bilish hozirgini yaratish uchun beqiyos ahamiyatga molik. Ijtimoiy hayotni tushunishdagi birinchi qadam hozirning o'tmish tomonidan yaratilganligini tasavvur qilish bilan bog'liqdir. Milliy g'oya xalqimiz tarixiga, uning tarixiy xotirasiga tayanadi. Tarixiy xotirasidan judo bo'lgan xalq o'zini millat sifatida anglay olmaydi, millatning manfaat va ehtiyojlarini qalban xis qila olmaydi. Binobarin milliy g'oya ham ratsional, ham irratsional mohiyatga ega bo'lib, u milliy ruhiyat, kayfiyat, ichki uyushtiruvchi, yo'naltiruvchi, harakatga keltiruvchi, yetaklovchi milliy xis-tuyg'u hisoblanadi [11, 11].

Milliy mafkura - muayyan jamiyatning tarkibidagi millatlarning o'z mustaqilligini, mustaqillik manfaatlarini himoya qilish, rivojlantirish yo'nalishidagi ichki intilishlari natijasida vujudga keluvchi tuyg'ulari, maqsadlari, hoxish-irodalarini ifodalovchi g'oyalar majmuasidir. Milliy mafkuraning o'zagini milliy g'oya tashkil etadi, u jamiyatda barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni ta'minlaydi. Milliy g'oyaning asosiy tayanchi nuqtasi ham, harakatga keltiruvchi, uyg'otuvchi kuchi ham milliy o'zlikni anglashdir. Millat o'zini xalq sifatida, millat sifatida, el sifatida anglamaguncha uning obro'yi, qadri-qimmat, or-nomusi haqida qayg'urishi, milliy faxr va g'ururi uchun kurashishi mumkin emas. O'zlikni anglash xalqni g'aflatdan uyg'otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuchdir.

Tarixiy taraqqiyotga asos bo'lgan g'oyalar ichida ilk sivilizatsiya paydo bo'lishi davridagi g'oyalar tarix uchun muhim hisoblanadi. Ibtidoiy davrdan shakllana boshlagan madaniy jarayonlar rivojlanib sivilizatsiya taraqqiyotiga olib keldi.

“Sivilizatsiya” tushunchasining etimologiyasi ham fuqarolar, shahar jamoasiga borib taqalishi bejiz emas. “Sivilizatsiya” tushunchasini ilmiy doiraga birinchi bo'lib shotland faylasufi A.Fergyson 1767 yilda chop etilgan “Fuqarolik jamiyatining tarixiy tajribasi” asarida olib kirdi. U kishilik jamiyatini yovvoyilik, vahshiylik va sivilizatsiya davrlariga bo'lib chiqdi. Insoniyat tarixda 20 dan ortiq sivilizatsiya va undan ko'proq subsivilizatsiyalarning shohidi bo'lgan. G'arb va Sharq esa ikki supersivilizatsiya hisoblanadi. Subsivilizatsiya – bu sivilizatsiya tarkibidagi alohida mavqega ega bo'lgan taraqqiyot. Supersivilizatsiya – taraqqiyotning eng yuqori cho'qqisi va yuksakligi.

Mahalliy olimlarning asarlarida “O'zbekiston sivilizatsiyasi”, “Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi”, “Oks sivilizatsiyasi”, “Xorazm sivilizatsiyasi” kabi tushunchalar uchrasada, biroq, ko'p tomlik “Jahon tarixi” to'plamida yoki O.Shpengler, A.Toynbi, K.Yaspers va boshqa olimlarning asarlarida bu sivilizatsiya qayd etilmagan. Vaholanki, Markaziy Osiyo (Turon) va Qadimgi Sharq davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar bundan 5-6 ming yil oldin boshlangan.

Eng qadimgi shaharlar, yozuv, davlatlar tashkil topishishiga qaramay, qadimgi Turon hududini mustaqil sivilizatsiya markazi deb emas, balki qadimgi davr uchun Eron sivilizatsiyasining pereferiyasi, oʻrta asrlarda esa islom sivilizatsiyasining bir boʻlagi sifatida qarash keng tarqalgan [12, 155].

Dastlabki sivilizatsiyalarning paydo boʻlishi va taraqqiyoti, sivilizatsiyaning ilmiy-nazariy, tarixiy-falsafiy tahlili, Sharq va Gʻarb sivilizatsiyalarining qiyosiy tahlili masalalari boʻyicha O.Shpengler, A.Toynbi, K.Yaspers, I.M.Dyakonov va boshqa olimlar tadqiqot olib borganlar. Umuman, sivilizatsiya insoniyat taraqqiyotining asosiy mezon sifatida talqin etiladi. Sivilizatsiya jarayonlarini arxeologik maʼlumotlar asosida oʻrgan Y.V.Kachanovskiy oʻzigacha boʻlgan tadqiqotlarni umumlashtirib sivilizatsiyaning: iqtisod, ijtimoiy-siyosiy va madaniyat sohalaridagi mezonlari mavjudligini taʼkidlaydi. Buni ingliz olimi G.Chayld rivojlantirib, sivilizatsiyaning oʻn belgisini taklif etgan. 1958 yil K.Klakxolm uchta belgini – mahobatli meʼmorchilik, shaharlar va yozuvni qoldirish fikrini aytadi. Bu uch belgi sivilizatsiyaning madaniy majmui sifatida taʼriflanadi. Mulkiy tabaqalanish va davlatning paydo boʻlishi sivilizatsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini tashkil etadi [13, 6-12]. Oʻz oʻrnida qadimgi (ibtidoiy) ongning rivojlanib madaniy-sivilizatson ongga aylanishi, yaʼni tarixiy ong va tafakkur rivojiga antik davrga kelib ilmiy-nazariy tamoyillar shakllanishi bilan muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Ingliz olimi A.Toynbi “sivilizatsiya” tushunchasi yordamida tarixni oʻrganish asoslarini ishlab chiqdi. Uning fikricha, sivilizatsiya geografik, milliy, diniy va boshqa belgilarning umumiyliigi bilan farq qiluvchi jamiyatning tor va mahalliy holatidir. A.Toynbi “turli xalqlar, davrlar va mamlakatlarda oʻziga xos turli rivojlanish hodisalari yuz bergan. Biroq har tomonlama mustaqil va jiddiy sivilizatsiyalar soni 10 dan ortmaydi”, - deydi. [14, 72].

Sivilizatsiya nazariyalarning ikkita tipi mavjud: 1) sivilizatsiyaning bosqichma-bosqich nazariyalari; 2) mahalliy sivilizatsiya nazariyalari. Bosqichma-bosqich rivojlanish nazariyalari sivilizatsiyani insoniyat jadal taraqqiyotining umumiy jarayoni sifatida oʻrganadi. Mazkur nazariya tarafdorlari ijtimoiy-iqtisodiy

formatsiyalar nazariyasi o'rniga ijtimoiy-madaniy sivilizatsiyalar nazariyasini qo'llamoqdalar.

Tarixiy taraqqiyotga asos bo'lgan g'oyalar ichida ilk davlatlar paydo bo'lishi davridagi g'oyalar ham muhim hisoblanadi. Davlat - jamiyat tashkilotining shakli, jamiyatdagi hokimiyatning asosiy instituti, siyosiy tizimning poydevori. Hokimiyat - insoniyat rivojida jamoalar hayotini qoidaga solish, axloqiy normalar (chegaralar) belgilash, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirish, ya'ni jamiyat hayotini tartibga solish zaruriyatidan kelib chiqadi. Davlatning dastlabki vazifalari - tashqi xafsizlikni ta'minlash, jamiyatning tartibli rivojlanishiga tahdid soluvchi ichki omillar harakatini bartaraf etishdan iborat.

Davlatchilik g'oyasining shakllanishi haqida quyidagi nazariyalar mavjud: Teologiya (F.Akvinskiy, J.Mestr, islom va katolik mafkurasi), Patriarxal (Arastu, R.Filmer), Patremonial (A.Galler), Shartnomaviy (A.Gorsiy, J.Lokk, T.Gobs, J.Russo, D.Didro, Sh.Monteskye), Zo'ravonlik, kuch ishlatish (YE.Dyuring, L.Gumplovich, K.Kautskiy), Irrigatsiya (K.Vittfogel), Psixologiya (L.Petrajetskiy, Z.Freyd, G.Tard), Sinfiy (K.Marks, F.Engels, G.Plexanov, V.Lenin) nazariyalar. Davlat boshqaruv shakliga ko'ra quyidagilardan iborat: Aristokratiya, Despotiya, Tiraniya, Monarxiya, Demokratiya, Respublika, Konfederatsiya, konfederativ davlat [15, 41].

Milliy g'oyaning tub mazmun-mohiyatini aniqlashda g'oya va mafkuralar shakllanib, rivojlanishining tarixiy davr va bosqichlarini tahlil qilish muhimdir. Gap shundaki, sovet davrida g'oya va mafkuralar rivojlanish tarixini davrlashtirish tarixni davrlashtirish bilan bir xil amalga oshirildi. Bunda formatsion yondoshuvga amal qilindi. Ma'lumki, formatsion yondoshuv asosida insoniyat tarixi: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm va kommunizm formatsiyalaridan iborat, degan aqidaga amal qilindi. Bu yondoshuvning xato jihatlari esa quyidagilardan iborat edi: 1. Har bir davrni o'rganish sinfiylik, partiyaviylik tamoyillari asosida olib borildi. 2. Sivilizatsion yondoshuv mutlaqo inkor etildi. 3. Tarixni davrlashtirishda hukmron siyosiy-mafkuraviy kuch manfaatlari himoya qilindi.

Umuman tarixni, shu jumladan g'oya va mafkuralar tarixini davlatlashtirishda umumiylik mavjud. Hozirgi kunda tarixni sinfiylik, partiyaviylik kabi tamoyillar asosida o'rganish va davrlashtirish inkor etilgani kabi, ularni sivilizatsion yondashuv asosida o'rganish ham aniq bo'lib qoldi. Sivilizatsion hodisalarni kopleks - tizimli yondashuv asosida o'rganish bizga g'oya va mafkuralarning rivojlanish tarixini davrlashtirishda to'g'ri yo'l tanlashga imkon bermoqda.

O'zbekistonning o'tmish tarixi - gumanizm g'oyalarining shakllanishi tarixi hamdir. Buyuk ajdodlarimizning ijodi va faoliyatida inson qadr-qimmatini, uni hurmatlash, ularga erkin faoliyat ko'rsatish uchun shart-sharoit yaratish g'oyasi yotadi. Bu narsa jadidchilik va ma'rifatparvarlik harakatida ham o'z aksini topgan. Jadidchilar tarixni o'rganishni milliy g'oya darajasiga ko'tardilar. Xususan, Ahmad Zaki Validiy To'g'on insoniyat tarixini o'rganish va tarix falsafasining nazariy-metodologik jihatlarini ishlab chiqar ekan, quyidagi tamoyillarni ilgari suradi: tarixning teokratik va dualistik; materialistik; pozitivistik; idealistik; ekspressionistik; gumanistik talqini va hokazolar [16, 58].

Ta'kidlash lozimki, har bir davrning o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyotining o'sha bosqichini o'zida mujassam etgan g'oyalari mavjud bo'lgan. Masalan, ibtidoiy jamiyatda inson yovvoyilikdan madaniylashishga o'ta boshladi, tabiat sirlarini o'rganib o'zining inson ekanligini his etish bilan bog'liq g'oyalar yuzaga kela boshladi. O'rta asrlar davrida esa ibtidoiy jamiyat paytida shakllana boshlagan milliy davlatchilik yanada takomillasha bordi, xalqning shakllanish jarayoni ro'y bera boshladi, madaniyat va san'atda o'ziga xoslik yuzaga keldi hamda bu ma'naviy hayotdagi milliylik sifatida paydo bo'ldi. Umuman milliy istiqlol g'oyalarining yuzaga kelishida bu davr o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero, o'rta asrlarda O'zbekistonda buyuk Sharq Uyg'onish madaniyati, Sharq Renessiansi yuz berdi. Ayni paytda, bu davrda yurtimizga islom dini kirib kelishi natijasida musulmon madaniyati shakllana boshladi. Tabiiy, ilmiy fanlar bilan birga diniy ta'limot rivoj topdi. Ushbu davrning asosiy g'oyasi esa barkamol insonni tarbiyalash va adolatli jamiyat qurishdan iborat bo'ldi.

Shuningdek, mustamlakachilik va sovet mustabid tizimi davridagi norasmiy g'oya va mafkuralarning mazmunini asosan mustaqillik g'oyasi, O'zbekistonni tom ma'noda istiqloлга erishishga yo'naltiruvchi g'oyalar tashkil etganligini ham qayd etish lozim. Umuman, g'oya va mafkuralar rivojlanishining tarixiy bosqichlarini yoritishda sivilizatsion yondashish milliy g'oyaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglab yetishga imkon beradi.

Ayni paytda milliy g'oyani chuqur o'rganib, uni jamiyatning har bir fuqarosida ijtimoiy amaliyot darajasiga ko'tarishda tarixiy ong va tafakkur muhim ahamiyat kasb etishini e'tiborga olish lozim. Boshqacha aytganda, tarixiy ong, ma'lum darajada, g'oyaviy-mafkuraviy funksiyalarni bajaradi. Ma'lumki, tarixiy ong o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra g'oyaviy-mafkuraviy tavsifga ega. Tarixiy ong jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlarini o'zida aks ettiruvchi, xalqning umumiy hayot darajasini ifodalovchi his-tuyg'u, g'oya va qarashlari majmuidir. Tarixiy ong madaniyatdagi siyosiy, huquqiy, axloqiy, falsafiy, diniy, estetik qarashlar, kechinmalar tarzida ko'rinadi.

Ta'kidlash lozimki, tarixiy ong va tafakkur o'ziga xos tarzda g'oyaviy-mafkuraviy vazifani bajaradi va milliy g'oyani rivojlantirishda o'ziga xos rol o'ynaydi. Uning turli shakllarida umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan, ayni paytda milliy o'zlikni o'zida aks ettirgan chuqur mazmun, teran g'oya va insoniy qadriyatlar mujassam bo'ladi. Har bir shaklda u yoki bu millatning uzoq yillar mobaynida to'plagan milliy madaniy, ilmiy, ma'rifiy va g'oyaviy-mafkuraviy merosi vorislik tamoyili asosida avlodlardan avlodga o'tib boradi.

O'zbek tarixini umumturk tarixining bir qismi sifatida o'rganishimiz va baholashimiz, o'zbek xalqining qadim-qadimdan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko'hna zaminning minglab yillar davomida yashab kelayotgan va o'z tarixiy takomilida o'nlab saltanatlar qurgan haqiqiy egalari ekanligini, bu Turon-Turkiston O'zbekiston qadim madaniyat beshiklaridan biri ekanligini, hozirgi zamonaviy fan va texnikaning poydevori shu yerda yaratilganligini anglamog'imiz va anglatmog'imiz zarur. «Biz kim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz, biz kim millatlarning eng qadimi va ulug'i - turkning bosh bo'g'inimiz» - Sohibqiron Amir

Temurning buyukligi zahirida ana shunday milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira mujassam.

Qadimgi Sharq tarixida, binobarin, umuman insoniyat tarixida, Qadimgi Turon shunday bir muhim o'rin tutadiki, iqtidorli tarixchi tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, uning moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganmasdan turib, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini jiddiy tadqiq qilmasdan turib, insoniyatning madaniy-ma'naviy tarixi haqida haqqoniy tasavvurlarga ega bo'lish va uning taraqqiyot qonunlarini to'g'ri aniqlash mumkin emas.

“Sovuq urush” davridan keyin dunyoning mafkuraviy manzarasi o'zgardi, mustaqil davlatlar paydo bo'ldi va milliy g'oya mustaqil rivojlanish yo'liga kirgan davlatlar uchun dolzarb bo'lib qoldi. Mustaqil O'zbekistonda Birinchi Prezident I.Karimov tomonidan milliy istiqlool g'oyasi asoslab berildi. Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish, mamlakatning zamonaviy qiyofasini yaratish, yangi jamiyat qurish maqsadlari, umuman taraqqiyotning yangi bosqichi yondashuvlarni tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda.

Yangi O'zbekistonda ham rivojlangan davlatlardagi kabi farovon turmush sharoitini yaratish yo'lida qator islohotlar olib borilmoqda. “Mamlakatimizning zamonaviy va jozibador qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish vatandoshlarimizning asosiy maqsad-muddaosiga aylandi”. O'zbekistonning yangi taraqqiyoti “mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda” [2,6]. Bu esa milliy g'oyani rivojlantirish va yangicha dunyoqarashni shakllantirish bilan bog'liq masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Jamiyat taraqqiyotining yaxlit mohiyatini idrok etish orqali tub burilish davrlari yaratilishi mumkinligini anglash muhim.

Mustaqillik yillarida milliy istiqlool g'oyasi asosida shakllangan yangicha tarixiy ong va tafakkur amalga oshirilayotgan islohotlarda o'z ifodasini topmoqda. Yangi O'zbekiston poydevorini qurishda birinchi va ikkinchi Renessansga asos bo'lgan g'oyalarni ilmiy dalillash uchun milliy g'oya tarixini o'rganish, tarixiy bilimlarni o'zlashtirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni qo'llash muhim

o‘rin tutmoqda. Tarixiy yangilanish davrlariga mutunosib tafakkur shaklini hosil qilgan taqdirda rivojlanishga erishish mumkin.

Prezident Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” kitobida shunday dedi: “Yangi O‘zbekiston tushunchasida mujassam bo‘lgan xalq orzusi tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida millatning yetuk vakillarini uni ro‘yobga chiqarish yo‘lida amaliy harakatlarga undab keldi” [2,16]. Milliy yuksalish g‘oyasini ifodalovchi tushunchalarni jamoatchilikka tushuntirish uchun uning nazariy va amaliy uslublarini ilmiy asoslash lozim bo‘ladi.

Yangi taraqqiyot g‘oyasi qadim tarixda ajdodlar yaratgan insonparvar va taraqqiyparvar g‘oyalarda o‘z ifodasini topgan. Tarixiy taraqqiyotning barcha davrlarida xalqning buyuk namoyandalari uni amalga oshirishga harakat qilgan. “Avesto” g‘oyalari qadimda xalq tafakkuri va turmush tarziga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, tarixiy ongi yuksalishiga sabab bo‘lgan. Ozodlik, mustaqillik va vatanparvarlik g‘oyalari sak-massagetlar malikasi To‘maris, Spitamen, Jaloliddin Manguberdiga shijoat baxsh etgan. Vatan mustaqilligi uchun kurashgan qahramonlar yodi millatning tarixiy xotirasini belgilaydi. Milliy g‘oya targ‘ibotida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishning zamonaviy usullari va vositalari orqali amalga oshirilishi lozim.

O‘rta asrlardagi Ma’rifiy uyg‘onish g‘oyalari Birinchi Renessans uchun ma’naviy asos bo‘lgan. O‘sha davrda ijod qilgan O‘rta Osiyo mutafakkirlari asarlarida adolatparvarlik, komillik g‘oyalari aks ettirilgan. Temur va Temuriylar Renessansi – Ikkinchi uyg‘onish davri g‘oyalari bunyodkorlik, markazlashgan davlat, adolatli jamiyat g‘oyasida mujassam bo‘ldi va buyuk siymolarni yaratdi.

Buyuk allomalarning asarlarida aks etgan odil podsho, adolatli jamiyat, komil inson - tasavvuf g‘oyalari insonlarni tarixiy ongi va tafakkuridagi ilohiy tushunchalarni yangiladi. Bu davr komillikka sabab bo‘luvchi iymon-e’tiqodni millat uchun qadriyatga aylantirdi. Komillik, iymon va ma’rifat g‘oyasi xalq ruhiyatidan o‘rin oldi. Jadidlar ijodida ma’rifatparvarlik va tarixiy bilimlarni egallash g‘oyalari o‘z aksini topdi. Bu g‘oya ma’naviyat va ma’rifatni farovon hayotga, milliy mustaqillikka eltuvchi kuch sifatida anglash imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev mamlakatda ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash maqsadida qabul qilgan hujjatlarda [5, 29] milliy g‘oyani mamlakatda yashayotgan barcha millat va elatlar, ijtimoiy toifa vakillari o‘rtasida keng targ‘ib etish, bunyodkorlik ruhini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Milliy ta’lim tizimida tarixiy-ma’naviy merosdan unumli foydalanish tajribasi hayotiy dasturga aylanishi kerak. Buyuk ajdodlar merosiga tayanib yangi Renessans poydevorini yaratish uchun tarixiy shart-sharoitlar mavjud, endi gap ana shu tarixiy merosdan oqilona foydalanishga bog‘liq.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” [6,30], degan g‘oya asosida ta’lim-tarbiya umummilliy harakatga aylanmoqda, zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimi yaratilmoqda. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi” doirasida ta’lim tizimiga “Tarbiya” fani kiritildi, uning nazariy-metodologik asoslari sharqona tarbiya negizlariga tayanib, ulug‘ allomalarning asarlaridan foydalanildi. Chunki, yangi tarixiy ong va tafakkur ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi.

Mamlakatda Prezident maktablari va ijod maktablari barpo etildi, “Zamonaviy maktab” dasturi joriy etilmoqda. Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar masalalari bo‘yicha idoralararo kengash, Yoshlar parlamentlari, Yoshlar akademiyasi tashkil etildi. Shuningdek, hududlarda “Loyihalar fabrikasi” ish boshladi. “Yoshlar - kelajagimiz” davlat dasturi doirasida iqtidorli yoshlarning biznes loyihalariga imtiyozli kreditlar ajratildi [4,1]. Maqsad – Yangi O‘zbekistonni yaratuvchi milliy kadrlarni yaratish, milliy g‘oyani jahon miqyosida targ‘ib qilishdir.

Shuningdek, maktab faqat ta’lim maskani emas, ma’naviyat va kasb o‘rgatuvchi dargohga aylanishi uchun “2020-2030 yillarda O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim va tarbiya sohasini gumanitarlashtirish strategiyasi” ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Milliy tafakkurga ega bo‘lgan yangi avlodni tarbiyalash maqsadida “Ma’naviyatshunoslik” va “Kasb ma’naviyati” fanlari joriy etildi. Bu kasbni egallaganlar yangi O‘zbekiston g‘oyasini ilmiy o‘rganadi va targ‘ib qiladi. Ammo,

haligacha ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni o'qitish bo'yicha yaxlit konsepsiya mavjud emas.

Ijtimoiy fanlarga e'tiborsizlik natijasida dunyoqarashi tor, jamiyat va davlat tushunchalaridan bexabar "Boy berilgan avlod" shakllanishi mumkin. Bu bir vaqtlar chet ellarda yaratilgan, g'oyasizlikka asoslangan konsepsiyaning natijasi, dunyoda ma'naviy tanazullga sabab bo'lgan, insoniyatni ma'naviy g'ariblashtirishga olib kelgan ma'naviyatsizlik va g'oyasizlik texnologiyalarining oqibatidir.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik muammolarni bartaraf etishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirishi belgilab qo'yildi [3,6]. Bugungi kunda mamlakatning har bir fuqarosida samarali va mustahkam ma'naviy immunitetni shakllantirish kechiktirib bo'lmaydigan vazifaga aylandi.

Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklashga alohida e'tibor qaratildi. Bundan ko'zlangan maqsad yoshlarni yuksak intellektual salohiyatli, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdir. Shu bilan birga yoshlarda vatanparvarlik ruhini uyg'otish, eng avvalo, ularning ma'naviy dunyosini shakllantirishdir. Shuning uchun ham hozirda yoshlarda tarixiy ong va tafakkurni shakllantirish muammosini o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ajdodlar yaratgan turli ilm sohalariga oid bebaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Ana shunday katta ko'lamdagi boy ilmiy merosga ega xalq dunyoda kamdan kam topiladi [1, 31]. Bu ilmiy meros istiqloq g'oyasiga asoslangan yangicha tarixiy ong va tafakkurni shakllantirishda manba vazifasini bajardi. Tarixiy ong va tarixiy tajriba har qanday jamiyat uchun ulkan nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega. Yevropada olimlarning e'tibori ushbu muammoga qaratilgani bejiz emas [17, 31].

G.Gegel (1770-1831) ongning tarixiyligini, uning ijtimoiy hayotning tarixan o'zgaruvchan shakllariga bog'liqligini asoslagan, shuningdek individual ong bilan ijtimoiy ongning dialektikasini har tomonlama ko'rib chiqqan edi. Bunda u "dialektika tafakkurning tabiatidan iborat bo'ladi", tafakkur esa "inson bilan

bogʻliq barcha narsada faol boʻlib, butun insoniyatga uning insoniyligidan xabar beradi”, - deb taʼkidlagan [18, 63]. Gegel ongni tadqiq qilishda tarixiylik va faoliyat prinsipini qoʻlladi. U ongga shaxsning konkret–tarixiy davr doirasidagi faol harakat faoliyat mahsuli sifatida qaradi.

XULOSA

Oʻzbekistonni dunyoga mos ravishda rivojlantirishda, jamiyat aʼzolarini Yangi Oʻzbekiston gʻoyasi asosida birlashtirishda tarixdagi bunyodkor gʻoyalardan saboq olgan holda tarixiy bilimlarga eʼtibor qaratish, Milliy gʻoya tarixini oʻrganish orqali Yangi Oʻzbekiston gʻoyasini milliy harakatga aylantirishda tarixiy tafakkur omilini rivojlantirish zarur:

asrlar davomida shakllangan xalqning tarixiy-maʼnaviy qadriyatlarini, mamlakat tinchligini buzishga yoʻnaltirilgan turli gʻoyaviy-mafkuraviy taxdidlarga qarshi kurashda tarix jarayonida sinovdan oʻtgan milliy va jahon tajribasi usullaridan, milliy gʻoya tamoyillari va tarixiy ong omilidan foydalanish;

jamiyatda dunyoviy va diniy muvozanatni taʼminlashda axloqiy meyorlarni kuchaytirish, taʼlim olishning innovatsion mexanizmlarini joriy etishda milliy mafkuraga mos yangicha tarixiy ong va tafakkurdan foydalanish;

jamiyatda vatanparvarlik tuygʻusini kuchaytirishda, barcha millat va elatlarga “Shu aziz vatan barchamizniki” gʻoyasini targʻib qilishda tarixiy birlik omilini rivojlantirish.

Yangi Oʻzbekiston – Uchinchi Renessans poydevorini qurishda oʻz imkoniyatlariga ishonch xalqni birlashtirib, yanada kuchli qilmoqda. Bu intilishlar xalq harakatiga, yangicha milliy gʻoyaga aylanib bormoqda. Dunyoda turli xil gʻoyalar mavjud boʻlar ekan, “Yangi Oʻzbekiston strategiyasi” asosiy gʻoya, tizim sifatida amal qilishi kerak. Shunda Oʻzbekiston oʻzining tadrijiy rivojiga ega boʻladi.

IQTIBOSLAR / ЧОККИ / REFERENCES

1. Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. Ikkinchi nashr. T.: “Maʼnaviyat” 2010, 31-bet.

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2021. –B. 6, 16.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2019 yil 6 may, 18-son, 353-modda.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 31 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // Yangi O‘zbekiston 2020 yil 1 sentabr № 167.
5. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori // Xalq so‘zi, 2017 yil 29 iyul.
6. O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasi // Yangi O‘zbekiston, 2020 yil 30 dekabr, № 255.
7. O‘zbekistonning yangi saylangan Prezidenti Sh.Mirziyoyevning inauguratsiya marosimidagi nutqi // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2021 yil 7 noyabr, 223-son.
8. O‘tamurodov A., To‘rayev Sh. Milliy g‘oya va ijtimoiy taraqqiyot. –T.: “Tafakkur”, 2011. B. 11-15.
9. Alimova D. Insoniyat tarixi – g‘oya va mafkuralar tarixidir. – T.: Ijod dunyosi, 2002. -B. 6.
10. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Izohli ko‘rgazmali vositalar to‘plami. -T.: Yangi asr avlodi, 2001,. –B. 12-17.
11. To‘rayev B., Ramatov J. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. -T.: Ijod dunyosi, 2002. –B. 11.
12. Mavlonov O‘., Abduvosidova I. Tarixiy-madaniy meros – milliy g‘oyani anglash omili. –T.: Akademiya, 2014. –B. 155.
13. Eshov B. Qadimgi O‘rta Osiyo shaharlari tarixi. –T., 2006. –B. 6-12.
14. Тойнби А. Постигение истории. –М.: “Прогресс”, 1991. -С.72.

15. Ртвеладзе Э.В. История государственности Узбекистана. – Т.: Узбекистан, 2009. –С. 41.
16. Abdurahmonov M., Zohidiy A. A.Validiy To‘g‘onning Turkistonga safari. –Т., “Fan”, 1997, -В. 58.
17. Курарцева М.А., Коломеец Е.Н. Историография и историческое мышление. // Вестник Московского Университета. – Москва,Москва, 2004. – № 2. – С. 31-49.
18. Гегель Г.В. Лекции по философии истории. – СПб. 1993. – С. 63.